

**BOLALAR BOG'CHASIDA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL
ETISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI****Tursunova Dilnovoz***o'qituvchi,**Farg'onan davlat universiteti*

Annotatsiya: *Har bir jamiyatning taraqqiyoti millat yoshlarini milliy ruhda tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy hayot, turmush tarziga qay darajada samarali tayyorlanishiga bog'liq. Shu sababli asrlar davomida har bir millat, xalq o'z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Milliy yondashuv asosida tarbiya jarayonini tashkil etish natijasida yoshlar milliy mentalitet xususiyatlarini o'zida namoyon etuvchi sifatlarga ega bo'lganlar.*

Kalit so'zlar: *ta'lism, innovatsiya, pedagogik jarayon, maktabgacha ta'lism.*

"Jamiyatimizdagi madaniy, iqtisodiy va ma'naviy sohalardagi hozirgi rivojlanish jarayonida ta'lism-tarbiya sohasida o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi, ya'ni maqsadga yo'naltirilgan ta'lism-tarbiya samaradorligini oshirish borasidagi izlanishlar katta axamiyatga ega bo'lib, bu muammo ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalgan etmoqda"[1].

Ma'lumki, "insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakllantiruvchi soha xalq ta'limi tizimi deb atalib, uni amalga oshiruvchi shaxs o'qituvchi yoki muallimdir"[2]. O'qituvchi-muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan. O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash jarayoni, uni maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnnini topib keta olishiga bog'liq.

Maktabgacha ta'lism bolaning sog'lom, xar tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish xissini uyg'otadi, muntazam ta'lism olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lism bola 6-7 yoshga etgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalarida hamda oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lism maqsadi va vazifalarini ruyobga chiqarishda maxallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'lismni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish zarur:

- yoqori malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni tayyorlash;
- maktabgacha ta'larning samarali psixologik-pedagogik uslublarini yaratish va amaliyotga joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ta'lism-tarbiya jarayoniga tatbiq etish;

- bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloq jihatdan tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lif muassasalarining xar xil turlari uchun muqobil dasturlarni tanlab olish, barcha masalalar bo'yicha malakali maslahat ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha ta'lif va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish bolalar bog'chasining har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta'lif-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lif berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar, gigienik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ta'lif-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog'chasidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Bolalar bog'chasining pedagogik jarayonida ta'lif muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

Mashg'ulotda ta'lif va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish, savod o'rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko'nikma sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bolalar bog'chasi dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiyl rivojlanishi va ularni maktab ta'limga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lif berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni haftaga teng taqsimlash.

1. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi.
2. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqyaiy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.
3. Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa va shunga o'xshash mashg'ulotlar keyinroqqa rejalashtiriladi.
4. Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va h.k.
5. Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini engilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

Shunday qilib, kun davomida bolalar hayotini tashkil etishdagi talablar quyidagicha:

1. Bolalarning hamma faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Har bir yosh guruhida faoliyat turlarini almashtirib borish.
3. Bolalarning harakat faolligini etarlicha ta'minlash.
4. Mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat o'rtasida bog'liqlik o'rnatish.
5. Bolalarning olgan bilim, malaka, ko'nikmalarini mustaqil faoliyatlarida qo'llay olishga o'rgatish. Bolani faol bo'lishga, har doim biron narsa bilan mashg'u'l bo'lishga o'rgatish.
7. Har bir bolani ijodiy qobiliyatlari, xohish va qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib borish va uning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish.
8. Bolalarning butun faoliyatiga tarbiyachining rahbarligi.
9. Kun tartibiga qatiy rioya qilish.

O'qitishning ta'limiy vazifasi majmui ham berilgan bilimlar asosida shakllanadigan ko'nikmadan iborat bo'lib, bilimlarning xarakteri tegishli ko'nikmalar bilan belgilanadi. O'qitishning tarbiyaviy vazifasi bolalarda ijobiy qarashlar va e'tiqodlarni, axloqiylik irodalilik va hissiyotlarni shakllantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy vazifaning natijalari ta'limiy vazifaning natijalari kabi muayyan, aniq qilinadigan bo'lmaydi. Tarbiyaviy vazifa har bir bolada turli darajada amalga oshadi.

ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. Toshkent, 2006.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent, 2009.
3. Матмусаева, М. А. (2017). Оилада болаларни меҳнатга ўргатиш. *Молодой ученик*, (4-2), 23-24.
4. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАР ПОРТФОЛИОЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ ШАРОИЛари. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 129-131). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
5. Матмусаева, М. А. (2016). ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ ФАОЛИЯТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ХАРАКТЕРИ. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 9, pp. 127-128). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
6. Makhmuda, Q., & Maftuna, K. (2020). Creative tasks in mathematics lessons in primary classes. *Proceeding of The ICECRS*, 6, 398-400.
7. Adkhamjanova, Q. M. (2020). Development of creative abilities in primary schools using ICT. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(4), 807-811.
8. Zukhrakhon, B. (2021). About the analysis of the potential of teaching staff in monitoring preschool education. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1120-1126.
9. Botirova, Z. A. (2019). THE THEORETICAL ANALYSIS OF THE APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF

PRESCHOOL EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 266-269.*

10. Ergashevna, K. M. (2021). Factors for improving the quality of education in primary schools of non-state educational institutions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9)*, 792-796.
11. Khallokova, M. E. (2018). Important Aspects of Establishing Non-State Educational Institutions. *Eastern European Scientific Journal, (2)*.
12. Халлокова, М. (2022). Нодавлат таълим муассасаларида таълим тизимини модернизациялаш. *Общество и инновации, 3(1)*, 151-157.
13. Khallokova, M. E. (2021). CRITERIA FOR NON-EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION. *World Bulletin of Social Sciences, 5*, 52-55.
14. Damirovich, M. R., Kholikulovna, M. E., & Ibragimovna, A. S. (2022). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. *Ijodkor o 'qituvchi, 2(19)*, 483-488.
15. Damirovich, M. R., & Ibragimovich, T. I. (2022). Sattarovich AU THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN PROMOTING THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HEALTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10, 1*.
16. Декканбаева, М. Н., Накибов, К., & Мустаев, Р. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОПУСТЫНИВАНИЯ. *Экономика и социум, (11)*, 939-942
17. Мустаев, Р. Д., & Абдуллаев, С. А. (2020). АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА АХЛОКИЙ-ЭСТЕТИК ГОЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАИИШИ. *Интернаука, (24-3)*, 23-24.